

“T A S D I Q L A Y M A N”

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ
huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi
o‘rinbosari

X.R. Raupov

2025 yil “ 2 ” 07

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ huzuridagi
Jamoatchilik kengashining kengaytirilgan
YIG‘ILISHI BAYONI № 3/2025

Navoiy shahri

2025 yil “ 2 ” 07

Raislik qiluvchi: X.R.Raupov -Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari

Ishtirok etdi: Kengash va Ekspertlar guruhlarini a‘zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

Yarim yillikda amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida

(Raupov, Djuraev, Sadriddinov, Soyibov, Radjabov, Isoqov, ... Raupov)

“Navoiy KMK” AJ huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari X.Raupov kengaytirilgan yig‘ilishni ochib, “Navoiy KMK” AJ hamda Jamoatchilik kengashi tomonidan 2025 yilning o‘tgan olti oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma‘ruzasi tinglandi.

Ma‘ruzada ta‘kidlandiki, “Navoiy KMK” AJ tomonidan 60,8 trln. sumlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga erishilgan, Investitsiya dasturi doirasida 219,5 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lar o‘zlashtirilgan, Mahalliyashtirish dasturi doirasida 757,5 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan va 1190 ta yangi ish o‘rni yaratilgan.

Kun tartibi muhokamasida Kengash a‘zosi S.Radjabovning Jamoatchilik kengashi tomonidan joriy yilning o‘tgan yanvar-iyun oylarida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisoboti tinglandi. Jumladan, hisobot davrida Kengash tomonidan 2 marotaba Nizom va ish rejasida belgilangan talablar bajarilishi, Ekspertlar guruhlarini faoliyati, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish va ochiqlik siyosati bo‘yicha OAV vakillari ishtirokida media tadbir va jamoatchilik eshituvlari, so‘rovnomalar o‘tkazilgani aytib o‘tildi.

Muzokaralarda S.Nazarova, F.Soyibov, N.Sadriddinovlar tomonidan mavzuga doir fikr-mulohazalar bildirildi.

Kun tartibidagi mavzuni muhokama etib, yig‘ilish

QAROR QILADI:

1. Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari X.R.Raupovning 2025 yilning olti oyi davomida amalga oshirilgan ishlar va ustuvor vazifalar to‘g‘risidagi ma‘ruzasi, Kengash a‘zosi S.Radjabovning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

- NKMK faoliyatiga doir qabul qilinayotgan muhim me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, dasturlarda faol ishtirok etish;

- jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, kombinat ishchi-xodimlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

- ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor vazifalarni bajarish, bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

- nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- jamoatchilik fikrini har tomonlama tahlil qilib borish, ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish va bu borada mas'ul bo'linmalar bilan natijadorlikka erishish choralarini ko'rish;


- ochiqlik siyosatini doimiy monitoring qilib borish;

- ishchi-xodimlar, ular oila a'zolari, pensionerlarni ijtimoiy himoya qilish, Jamoa shartnomasi talablari bajarilishini ta'minlash va boshqa muhim vazifalar ijrosini nazoratga olish va sharoitlarni chnada yaxshilash yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritish;

- o'ziga yuklatilgan vazifalar bo'yicha keng ko'lamlı targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish Kengash a'zolarining ustuvor vazifasi ekanligi eslatib o'tilsin.

4. Ushbu yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilish Jamoatchilik kengashi kotibi A.I. Jo'raev zimmasiga yuklansin.

Bayonlashtirdi:



A.Jo'raev